

O‘SMIRLIK DAVRI MUAMMOLARI VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shoberdiyeva Jamila Nortojiyevna

Angor tumani 33-maktab psixologi

Norboyeva Rayhon Mamayusupovna

Angor tumani 37-maktab psixologi

Annotatsiya O‘smirlik davri boshqa davrlarga nisbatan o‘zining murakkabligi va turfa xil xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada o‘smirlik davri muammolari va uni bartaraf etishda psixologiya fanining yutuq va imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘z: O‘smirlik, psixologiya, o‘tish davri, o‘qituvchi, o‘quvchi munosabatlari.

Kirish. O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Ular ta’sirida o‘smirning xarakteri, atrofdagi kishilar bilan muomalasi, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarga munosabati tez o‘zgarib boradi. Ba’zan ijtimoiy masalalar to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvur va yanglish fikrlar hosil bo‘lishi tufayli u muayan tartib-qoidalarga tanqidiy ko‘z bilan qaraydi. O‘smirda psixik jarayonlarning keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burishlar seziladi.

Shuning uchun shaxslararo munosabatda, o‘quvchi bilan o‘qituvchi muloqotida, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida qat’iy o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Bular, avvalo ta’lim jarayonida ro‘y beradi: yangi axborot, ma’lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o‘smirni qoniqtirmay qo‘yadi. Shu sababli ham bu yosh davrini ko‘pchilik olimlar tomonidan “qiyin davr”, “o‘tish davri”, “krizisli davr”

deya yuritilganini ko‘rishimiz mumkin. Odobli, dilkash o‘smir kutilmaganda qaysar, intisomsiz, qo‘pol, serzarda bo‘lib qoldi. O‘smir xulqidagi bunday o‘zgarishlar tajribasiz o‘qituvchi va ota-onasini kattik tashvishga soladi. O‘smirning psixik o‘shini xarakterga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo‘lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni psixologik kamolotni ta‘minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o‘smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yuqotish mumkin. Ayni bu davrda o‘smirlar bilan ishlash ularni ta‘lim jarayoniga jalb etish, o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini tarkib toptirish murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda psixologlarning amaliy faoliyati va ta‘sir doirasi asosida yuzaga kelayotgan inqirozning o‘tishini yengillashtirish mumkin. O‘smirlarni intellektual rivojlanishi, zamonning shart-sharoitlaridan kelib chiqib rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Fanlarda bo‘lgan munosabat, ularni o‘zlashtirish ham bevosita mavjud ijtimoiy muhit omillariga bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Lekin materialni yod olishda uning mazmuniga alohida e‘tibor berish lozim. Agar yod olinayotgan materialni mazmuniga tushunib, uni bir-biriga bog‘lab o‘qib olishga e‘tibor berilmasa, unday holda quruq yod olingan material tezlik bilan unutiladi yoki u o‘quvchidan baho olgunga qadar yetadi va keyin esidan chiqadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘quv materiallarni o‘zlashtirishlarida bunga albatta e‘tibor berishlari lozim. Shuningdek, ta‘lim jarayonida o‘qituvchi bergan yangi bilim va informatsiyalarni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganliklarini bilishda ta‘limdagi qaytarma aloqa muhimdir. Qaytarma aloqa jarayoni hamma jarayonlardan ham, ayniqsa yangi mavzularni mustahkamlash yoki o‘tilgan mavzuni takrorlash jarayonida bo‘ladi. O‘qituvchi sinf o‘quvchilarini o‘zlashtirgan yangi mavzu mazmunini aniqlashda mavzu bo‘yicha ko‘plab sodda savollar berish va kartochkalar tarqatish orqali amalga oshirish mumkin. Qaytarma aloqa orqali mavzuni mazmunini qanday o‘zlashtirib olganini aniqlash va u kelgusi mavzuni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish garovi bo‘ladi. Bilimlarni o‘zlashtirib borish turli ko‘nikma va malakalar hosil qilishga ta‘sir ko‘rsatadi. Har qanday ko‘nikma bilimlarsiz bo‘lmaydi. Ta‘limiy ko‘nikmalar (yozish, o‘qish va hisoblash o‘rganib olish) ko‘nikmani birinchi turiga kiradi. Ko‘nikma va malakalarni

ikkinchi turiga umumiy mehnatga doir bo'lib, ular kasb-hunar ta'limi jarayonida takomillashadi.

Natijalar va muhokamalar. Ta'lim - juda keng ma'noga ega bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, o'rganish, o'rgatish jarayonidir. Bu ta'rif hozirgi zamon ta'limi uchun yetarli emas. Chunki hozir mustaqillik davrida ta'lim o'zining mazmuni bilan o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar berish bilan birga, o'quvchilarni hozirgi zamon ruhida milliy kadrlar, jahon madaniyati va maorifining ilg'or g'oyalaridan oqilona foydalanib tarbiya beruvchi, bola shaxsini rivojlantiruvchi, uni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ilmiy tushuncha va izlanishlarga layoqatli qiluvchi ta'lim hamdir. O'smirlilik davrida ta'lim jarayoniga bo'lgan layoqat va o'quv motivatsiyasini oshirishda shaxsning individual psixologik xususiyatlarni o'rganishni tashxis qilish, u bilan xarakter tipologiyasi va temperamentiga muvofiq tarzda ishlash bugungi kunda psixolog oldida turgan asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. O'qish jarayoni - o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga ham, uning psixik rivojlanishining (aqliy, irodaviy jihatdan) individual tavsifnomasiga, unda o'qishga nisbatan qaror topgan munosabatlariga, uning qiziqish-havaslariga bog'liqdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoni o'quvchiga nimani va qanday qilib o'zlashtirishning oddiy bir xil natijasi emas, ya'ni sirdan ta'sir qiladigan shart-sharoitlarning oqibati emas, balki o'quvchining individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Bugungi kunda amaliy psixologiyaning imkoniyatlari yanada kengayib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Jamiyatimizda ro'y berayotgan barcha islohotlarda gumanitar sohalar qatori psixologiya ham rivojlanib o'zining ahamiyatligi bilan ajratilib turibdi. Yaratilayotgan barcha shart-sharoitlar intellektual salohiyatli, ertangi kunga jamiyat hayotiga rivojiga o'zining sog'lom fikri va qarashlari bilan foyda keltiradigan yoshlarni tarbiyalash uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdilkhakimovna, Mamaradjabova Bogzoda. "Influence of self-consciousness of a person on family relationships and its psycho-correction." (2022).
2. JUREVA, S., and B. MAMARADJABOVA. "The degree to which a person feels happy in the family." *JOURNAL OF CRITICAL REVIEWS* 7.5 (2020): 1873-1875.
3. Климов Е.А. Психология профессионала. Москва-Воронеж,1996.
4. Mamaradjabova Bogzoda. "Psychological Mechanisms of the Influence of Self-Awareness Strategy on the Development of Children's Emotions in the Family." *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science* 2.3 (2024): 229-232.
5. Mamaradjabova, B. A., and Allamov Jasur. "JAMOANI SHAKLLANTIRUVCHI TRENING MASHG ‘ULOTLARINING NAZARIY ASOSLARI." *E Conference Zone*. 2023.
6. Мамаражабова, Богзода Абдилхакимовна. "Роль сознания в деятельности человека." *Проблемы науки* 6 (42) (2019): 106-107.
7. Mamaradjabova, Bogzoda. "Self-awareness strategy." *Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19)* 1.03 (2020): 145-147.
8. Mamaradjabova, B. "SELF-AWARENESS STRATEGY."
9. Методологические и теоретические проблемы всеобщей профессиональной подготовки молодёжи. -- М., 1991.
10. Пряжникова Е.Ю. Технологии и методы профессиональной ориентации населения. М., 2001.
11. Чернявская А.П. Психологическое консультирование по профессиональной ориентации. М., 2001